



The activity of studying and analyzing the criminogenic situation in service area of preventive inspector

Sirojiddin ESHKOBILOV¹

Specialized branch of Tashkent State University of Law

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2022

Received in revised form

20 August 2022

Accepted 25 September 2022

Available online

25 October 2022

Keywords:

crime prevention,
administrative area,
criminogenic situation,
emergency situation,
preventive measures.

ABSTRACT

This article provides information on activities of prevention inspectors to study and analyze the criminogenic situation in service area, as well as information on criminogenic situations and their types.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss9/S-pp148-155>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Profilaktika inspektorining xizmat hududidagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish faoliyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

huquqbzuarliklar
profilaktikasi,
ma'muriy hudud,
kriminogen vaziyat,
favqulotda vaziyat,
profilaktik chora-tadbirlar.

Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining xizmat hududidagi kriminogen vaziyatni o'rganish va tahlil qilish faoliyati hamda kriminogen vaziyatlar va ularning turlari bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

¹ Teacher, Crime Prevention and Public Security Department Specialized branch of Tashkent State University of Law.

Деятельность по изучению и анализу криминогенной обстановки в зоне обслуживания профилактического инспектора

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

профилактика правонарушений, административная территория, криминогенная обстановка, чрезвычайная ситуация, профилактические меры.

В данной статье приведены сведения о деятельности инспекторов профилактики по изучению и анализу криминогенной обстановки в зоне обслуживания, а также сведения о криминогенных ситуациях и их видах.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 12-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hay'atining kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilishida ishtirok etib, profilaktika inspektorlarining bilim saviyasini muntazam oshirib borish borasida qator topshiriqlar berdi. Mazkur ko'rsatmalarning ijrosi bugungi kunda huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati vakillarining chuqur bilimli, o'z ishining ustasi bo'lgan chinakam professional xodimlar sifatida faoliyat olib borishiga imkon yaratayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlari tizimida chuqur va har tomonlama islohatlarning amalga oshirilishi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari tug'risida"gi PF-5005-sonli farmonida ham o'z ifodasini topgan. Bundan ko'zlangan maqsad, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning ta'biri bilan aytganda, "kelajakda el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqpavar ichki ishlar tizimini yaratishimiz kerak".*

Shuningdek, ichki ishlar organlari tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli tub islohatlardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan yana biri huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish va jinoyatchilikning barvaqt oldini olish barobarida ularning sodir etilishiga olib keluvchi shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va ularga barham berishdan iborat. Shu bois, huquqbuzarliklar profilaktikasining asosiy sub'yektlaridan biri hisoblangan ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini chuqur o'rganish va uni yanada takomillashtirish bugungi kunning talabidir.

Sohaga doir qonun va qonunosti hujjatlarining mazmun-mohiyatini, talablarini yaxshi bilgan xodimgina o'z faoliyati bilan bog'liq protsessual hujjatlarni to'g'ri yurita oladi.

Prezidentimizning "Obod va xavfsiz" mahalla yaratish to'g'risidagi topshiriqlari bo'yicha har bir profilaktika inspektori ishlashi kerakligi va doimo mahalla fuqarolari osoyishta, tinch, bexavotir hamda profilaktika inspektoriga ishongan holda yashashlari uchun har kuni "qanday qilsam mahallam tinch, xavfsiz va obod bo'ladi" degan shior ostida ishlashi kerak.

* O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi "Ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning ma'suliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5005-sonli Farmoni // URL:<http://www.lex.uz>.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, jamoat tartibini saqlashning mutlaqo yangi mexanizmlarini joriy etish hamda aholida shaxsiy xavfsizlik hissini shakllantirish borasida tizimli va samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi, shuningdek, mazkur faoliyatni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza "Xalq manfaatlariga xizmat qilish" olijanob g'oyasi asosida tubdan qayta ko'rib chiqildi. O'zbekiston Respublikasida huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasiga keng qamrovli islohatlar amalga oshirilib, bu boradagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yaxlit normativ-huquqiy baza shakllantirildi. Huquqbuzarliklar profilaktikasi tizimining samarali faoliyati natijasida mamlakatda huquq-tartibot mustahkamlanib, kriminogen vaziyat sezilarli darajada yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin. Bu esa fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlab kelmoqda.

Bugungi kunda profilaktika inspektori zimmasiga yuklatilgan barcha funksiyalarni samarali bajarish har tomonlama hududda kriminogen vaziyatni o'rganishni, tahlil qilib borishni talab qiladi. Shunday ekan, o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlikda eng avvalo mahallada yashovchi, o'zining g'ayriijtimoiy xulq-atvori xavfliligi tufayli huquqbuzarlik sodir etish ehtimoli holatida bo'lgan jismoniy shaxslarning turmush tarzini, mavjud muammolarni o'rganishi zarurdir.

Hozirda olib borilayotgan islohatlar davomida huquqbuzarliklar profilaktikasi sub'yektlarining yangi tizimi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2017-yil 14-martdagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi davlat organlarining ish shakli va uslublari, eng avvalo axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi sababli hozirgi kun talablariga to'liq javob bermasligi, davlat idoralari aksariyat hollarda huquqbuzarliklar profilaktikasini faqatgina huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifasi deb baholab, oqibatda ushbu faoliyatga lozim darajada e'tibor qaratilmayotganligi hamda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi chora-tadbirlarning aniq manzilga yo'naltirilmaganligi va ularga kompleks yondashilmayotganligi, shuningdek, huquqbuzarliklarning tizimli ravishda sodir etilishiga doir sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish samaradorligi mavjud emasligi va natijada kutilayotgan natijalarga erishilmayotganligiga oid salbiy holatlarning mavjudligi ta'kidlandi.

Bugungi kunda kriminogen vaziyatga tashqi omillar ta'siri kundan-kunga kuchayib bormoqda. Ayniqsa, dunyo davlatlari va xalqlari o'rtasidagi munosabatlar va muammolarning globallashuvi, jadallashuvi, xalqaro jinoyatchilik, uning uyushgan turi, terrorizm, giyohvandlik, qurol-yarog' va odam savdosi kabi ko'rinishlarining kengayib borayotganligi, shuningdek, o'zlarining g'araz maqsadlarini amalga oshirish uchun turli yo'l va usullar bilan mintaqadagi, alohida davlat yoki uning ma'lum bir hududidagi barqaror vaziyatni buzishga harakat qilayotgan kuchlarning mavjudligi har qanday barqaror vaziyatga salbiy ta'sirini o'tkazadi.

Jamiyatda, uning ayrim hududlari va sohalarida kriminogen vaziyatning murakkablashuvi quyidagi omillar bilan bog'liq:

birinchidan, noqulay iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarning mavjudligi;

ikkinchidan, davlatning ma'muriy buyruqbozlik usulida jamiyatni boshqarishi, aholining ko'pchiligida shakllangan bir tekislik psixologiyasining mavjudligi;

uchinchidan, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida islohatlarni amalga oshirishdek mas'uliyatli vazifalarni bajarishda ayrim shaxslarning suiiste'molliklari, xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishi;

to'rtinchidan, jinoyatchilik, ayniqsa uning uyushgan, yopiq va qabih turi bo'lgan korrupsiya va poraxo'rlikning mavjudligi.

Kriminogen vaziyatga ta'sir qiluvchi psixologik omillarni profilaktika inspektori faoliyatida hisobga olinishi muhim hisoblanadi.

Kriminogen vaziyat – mazmun bo'yicha jinoiy niyatning, jinoyat sodir qilish maqsadining shakllanishiga sharoit yaratuvchi va jinoiy natijaga erishish uchun qulay hisoblangan, ya'ni jinoyat sodir etishga ko'maklashuvchi vaziyatdir.

Kriminogen aniq hayotiy vaziyatlar kriminologiya fani asosida quyidagicha turlicha tavsiflanadi:

Harakat qilish vaqti bo'yicha – uzoq muddatli (masalan, qurg'oqchilik natijasida hosilning bo'lmasligi yoki ayrim iste'mol buyumlarining taqchilligi) va qisqa muddatli (do'konda navbatda turganda kelib chiqqan nizo) vaziyatlarga bo'linadi.

Harakat qilish maydoni bo'yicha – kriminogen vaziyatlarni aniq bir shaxsga yoki bir guruh shaxslarga taalluqli (oilaviy janjalkash, biror shaxsning vafoti, mulkning o'g'irlanishi) va umumiy, ya'ni barchaga taalluqli (tabiiy ofat, jamoadagi nosog'lom vaziyat, davlatdagi siyosiy barqarorlikning yo'qligi, milliy nizolar va boshqalar) bo'lgan kriminogen vaziyatlarga ajratish mumkin.

Kelib chiqish manbai bo'yicha – tabiiy kuchlar ta'sirida kelib chiqadigan (noqulay ob-havo sharoiti kishilar o'limiga, mulklarining yaroqsizlanishiga olib kelgan hodisaning yuz berishi) va odamlar tomonidan vujudga keltirilgan (spirtli ichimliklar ichib bezorilik sodir etishi yoki boshqa turli axloqqa zid harakatlar) kriminogen vaziyatlarga bo'linadi.

Shuni qayd etish lozimki, har qanday kriminogen vaziyat o'z holicha mustaqil holda shaxsni jinoyat sodir etishga olib kelmaydi. Negaki, jinoyatlar birdan yuzaga kelgan kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlarini sababli sodir etiladi.

Jinoyat sodir etish vaqtidagi kriminogen vaziyat bu shaxsning muhit bilan aloqasining alohida darajasi hisoblanadi. Bu aloqada salbiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxsdagi jinoyat sodir etishga moyilligi kriminogen vaziyat ta'sirida muayyan xatti-harakatga aylanadi. Aniq hayotiy vaziyatning shaxs muayyan jinoyat sodir etishiga ta'siri kriminogen vaziyatlar tufayli emas, balki insonning muayyan barqaror shaxsiy xislatlari va qadriyatlarini sababli sodir etiladi. Ammo o'z navbatida kriminogen vaziyat jinoyat sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarga o'zining g'ayrihuquqiy qilmishini sodir etishiga shart-sharoit, imkoniyat yaratib beradi. Masalan, favqulodda holatlar suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqalar sodir bo'lganda "o'g'rilikka" moyil bo'lgan shaxslar bu holatda o'zini yo'qotib qo'ygan va vahimaga tushib, o'z mol-mulkini qarovsiz qoldirgan fuqarolarning buyumlarini, pullarini va boshqa boyliklarini o'ziniki qilish maqsadida talon-taroj qilishga intiladi va ko'p hollarda buni amalga oshiradi.

Kriminogen vaziyatlar shaxsni turli salbiy-ijtimoiy xatti-harakatlarni sodir etishga undaydi, undagi muayyan jinoiy tajovuzning motivini shakllantiradi, uning xarakteri, maqsadini belgilaydi va jinoyat sodir etishda sub'yektiv omilning muayyan jinoiy xatti-harakatda namoyon bo'lishiga ko'maklashuvchi sharoit rolini bajaradi. Yana shuni alohida ta'kidlash kerakki, kriminogen vaziyatlar turli xil qarashlarga ega bo'lgan

shaxslarga turlicha ta'sir qiladi. Ya'ni jamiyatga zid qarashga ega bo'lgan shaxslarga jinoiy xatti-harakatlar sodir etishiga yordamlashadi, har tomonlama barkamol, ijobiy xususiyatlarga ega bo'lgan shaxslar esa bunday vaziyatlarda umuminsoniy va huquqiy normalarga muvofiq harakat qiladilar.

Kriminogen vaziyatlar shaxslarga ta'siri bo'yicha favquloddagi, ig'vo qiluvchi va jahlni chiqaruvchi xususiyatlarga ega bo'lgan turlariga bo'lishimiz mumkin.

Favqulodda vaziyat – bunda kutilmaganda, birdaniga vujudga kelgan shaxsga kuchli ta'sir qiluvchi holat tushuniladi. Masalan, kutilmagan hujumni qaytarish maqsadida zaruriy mudofaa chegarasidan chiqish.

Ig'vo qiluvchi – bunda shaxsni o'ziga og'diruvchi holat paydo bo'lishi mumkin, masalan, mulkni ochiq qoldirilganligi o'g'irlik qilishga undashi yoki nomusga tegish jinoyatida jabrlanuvchining axloqiy buzqligi kabilar.

Jahlni chiqaruvchi – bunda shaxsni kuchli ruhiy hayajonlanish holatiga tushuruvchi holatlarni aytamiz. Masalan, oiladagi janjallar yoki boshqalar tomonidan haqorat qilinishi oqibatida asab buzilishi natijasidagi holat.

Ichki ishlar organlari profilaktika inspektori kriminogen vaziyatni o'rganishda shaxsda jamiyatga zid yo'nalish va g'ayriijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi hodisa, voqea va jarayonlarni, huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir bo'luvchi joylarni, (ob'yektlar, ko'chalar, bozorlar v.x.k.) hamda huquqbuzarliklarni sodir etuvchi va profilaktik hisobda turgan shaxslar haqidagi ma'lumotlarni to'liq bilishi lozim.

Jamiyatda, uning ayrim hududlari va sohalarida kriminogen vaziyatning murakkabligi quyidagi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin:

birinchidan, ma'muriy hududlarda huquqbuzarliklarning umumiy, maxsus, yakka va viktimologik profilaktikasining samarali tashkil etilmasligi;

ikkinchidan, ayrim toifadagi oilalarda nosog'lom muhitning mavjudligi, oilada tarbiyaning sustligi va shaxsning spirtli ichimlik, giyohvandlikka ruju' qo'yishi;

uchinchidan, ilgari sudlangan va huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan shaxslarning ko'payishi;

to'rtinchidan, huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir etilishiga imkon beruvchi omillarning ko'payishi va boshqalar.

Profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasining samaradorligini oshirish uchun hududdagi operativ vaziyatni, aholi tarkibini chuqur va har tomonlama o'rganishi, profilaktik hisobda turgan shaxslarning turmush tarzi va xulq-atvorini, hududning xususiyatlarini, transport vositalarining harakatini, dam olish va ko'ngilochar maskanlarni, diniy va ommaviy marosimlar o'tkaziladigan joylarni, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish korxonalarining tovar-moddiy boyliklari saqlanadigan omborlarini, g'aznalarning joylashishi, texnik jihatdan himoyalanganligi va qo'riqlanish tartibini va mazkur hududni ta'riflovchi boshqa barcha ma'lumotlarga ega bo'lishlari zarur. Shu bilan birga mazkur ma'lumotlarni chuqur o'rganish va tahlil etilishini talab etadi.

Profilaktika inspektori tomonidan kriminogen vaziyatni umumiy tahlil qilish faoliyatining mohiyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- kriminogen vaziyat, uni tahlil etish;
- kriminogen vaziyatni tashkil etuvchi omillar;
- kriminogen axborotlarni o'rganish;
- huquq-tartibot holatini aks ettiruvchi axborotlarni o'rganish va ularning maqsadi;
- huquqbuzarliklar xususiyati va ularning dinamikasini tahlil qilish;
- huquqbuzar shaxsni tahlil qilish.

Yuqorida sanab o'tilgan holatlar bo'yicha ma'lumot to'plash, ularni tahlil etish va ular asosida tegishli profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda uni amalga oshirish kerak bo'ladi.

Ma'muriy hududlarda kriminogen vaziyatlarga ta'sir qiluvchi boshqa omillarni ham o'rganish maqsadga muvofiq bo'lib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

1. Ma'muriy hududni tavsiflovchi ma'lumotlar (maydoni).
2. Ma'muriy hududda yashovchi aholini tavsiflovchi ma'lumotlar (oilalar, erkaklar, ayollar va voyaga yetmaganlar soni).
3. Ma'muriy hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlar (ish bilan ta'minlanganlik, ishlab chiqarish korxonasi, tashkilotlarining mavjudligi).
4. Huquqbuzarliklarni tavsiflovchi ma'lumotlar.
5. Huquqbuzarlik sodir etgan va unga moyil shaxslarni tavsiflovchi ma'lumotlar.
6. Ma'muriy hududdagi jamoat tartibini saqlash va xavsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish faoliyati sub'yektlarini tavsiflovchi ma'lumotlar.

Profilaktika inspektori tomonidan kriminogen vaziyatni tahlil etish jarayonida quyidagi chora-tadbirlarning amalga oshirilishini talab etadi, xususan:

– hududlardagi kriminogen vaziyatni chuqur tahlil etish, huquqbuzarlik va hodisalarni tizimli qayd etish, profilaktik faoliyatni tashkil etishga oid zarur axborotlarni to'plash, dasturlashtirish, tahlillar asosida kuch va texnik vositalardan, profilaktika sub'yektlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish tizimini yaratish va uning natijalarini tahlil etish;

– profilaktik hisobga olingan, ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo'lgan oilalar, muqaddam sudlangan shaxslar bilan profilaktik ishlar olib borish, shuningdek ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo'lganlarga ishga joylashishlarida amaliy yordam ko'rsatish;

– yoshlar, ayniqsa voyaga yetmaganlar o'rtasida izchil profilaktik tadbirlar amalga oshirilishini tashkil qilish, shuningdek, davlat hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlikda ularni ishga joylashtirish, voyaga yetmaganlarning o'qish va ishdan bo'sh vaqtlari mazmunli o'tishini tashkil qilish tadbirlarini amalga oshirish;

– diniy-ekstremistik yo'nalishlardagi tashkilot va guruhlarining qonunga xilof faoliyati ishtirokchilari va unga aloqador shaxslarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularga nisbatan profilaktik ta'sir etishning kompleks tadbirlarini qo'llash.

Profilaktika inspektori kriminogen vaziyat tahlili natijalariga asosan ma'muriy hududda yoki u yerda joylashgan alohida ob'yektda ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, ularni sodir etuvchi shaxslar toifalarining ko'payishi, shuningdek, jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga qarshi qaratilgan xavf-xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi kuchayganda ushbu turdagi huquqbuzarliklarning profilaktikasi, bu turdagi huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, g'ayriijtimoiy xulq-atvorli, huquqbuzarlik sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni aniqlash hamda ularga profilaktik ta'sir ko'rsatish maqsadida chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Sodir bo'layotgan hodisa va jarayonlar mohiyati, ularning yuzaga kelish sabablari hamda kriminogen vaziyatning holati va xususiyatiga ta'sirini o'rganish, tahlil qilish, ichki ishlar organlari faoliyatini tezkor vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash hamda shu asosda salbiy omillarni bartaraf etish borasidagi ishlarining asosiy

yo'nalishlarini belgilashni tashkil etadi. Profilaktika inspektori jamiyatda bo'layotgan ijtimoiy munosabatlar va hodisalar to'g'risidagi axborotlarni to'plashi, qayta ishlashi va saqlashi, o'zaro almashishi hamda uni tahlil qilishi natijasida ishlab chiqiladigan xulosa va qarorlar asosida huquqbuzarlik sodir etgan yoki unga moyil shaxslarning taqdiriga ta'sir o'tkazishlari bois axborot-tahlil ishi ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Binobarin, axborot asosida erishiladigan rejalashtirish, qaror qabul qilish va faol harakat uchun zarur bo'ladigan bilim tegishli ijtimoiy tizimni samarali boshqarish uchun asos bo'lib inspektorga xizmat qiladi. Shunga ko'ra, ichki ishlar organlari profilaktika inspektorining faoliyati sohasidagi axborot deganda, profilaktika inspektori o'z funktsiya va vazifalarini amalga oshirish jarayonida bevosita ta'sir ko'rsatadigan atrof-muhit hamda ijtimoiy munosabatlar to'g'risidagi qayta ishlangan ma'lumotlar, shuningdek, ushbu tizim atrofidagi muhit bilan maqsadga muvofiq tarzda o'zaro munosabatda bo'lish, o'z tarkibiy qismlarining faoliyatini muvofiqlashtirish, tizim oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishish yo'lida samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'ladigan bilimlar majmui tushuniladi.

Profilaktika inspektorining sohaviy inspektor xodimlari bilan hamkorligini samarali tashkil etilishi natijasida sodir etilishi mumkin bo'lgan huquqbuzarlik va jinoyatlarning oldini olishga erishish mumkin.

Bundan tashqari, kriminogen vaziyat tahlili natijalariga asosan ma'muriy hududda yoki u yerda joylashgan alohida ob'yektda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibiga, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishining oldini oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.S. Tursunov, I.Y. Fazilov, S.B. Xo'jaqulov "Huquqbuzarliklar profilaktikasi". IIV Akademiyasi Toshkent., 2018-yil.
2. Davlat va huquq nazariyasi: Darslik / X.T. Odilqoriev, I.T. Tulteev va boshq. T.: IIV Akademiyasi, 2009-yil.
3. Q.R. Abdurasulova: Ayollar huquqbuzarlik sodir etganligi va ularning oldini olish muammolari. – T.: TDYI. 2006-yil.
4. Sh.A. Ganiev. Axloqqa qarshi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish. – T.: TDYU. 2016-yil.
5. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. T.: Adolat. 2021-yil.
6. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi T.: Adolat 2021-y.
7. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-maydagi "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi O'RQ-407-son Qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasining 2010-yil 29-sentabrdagi "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2896-sonli qarori.
11. S.Eshqobilov. (2022). Ommaviy tartibsizliklarning oldini olishda profilaktik chora-tadbirlarning ahamiyati. *Общество и инновации*, 3(3/S), 98–105.

12. Каракетова, Д. (2021). Криминологическая характеристика хулиганства и личности хулигана. *Общество и инновации*, 2(2/S), 68–75. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss2/S-pp68-75>.
13. S.Eshqobilov. (2021). Huquqbuzarliklar profilaktikasida ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish chora-tadbirlarining ahamiyati. *Общество и инновации*, 2(12/S), 97-105.
14. Eshqobilov S., & Toxirov D. (2022). The importance of social rehabilitation and social adaptation measures in crime prevention. *Инновационные исследования в науке*, 1(10), 66–75.
15. Raximjonov R. O'zbekistonda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasi // *Scientific progress*. – 2022. – Т. 3. – №. 4. – С. 23–27.
16. Muratovich M, Abduraxmonov Q. Huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risidagi qonun-jamoat tartibini saqlashning huquqiy asosi sifatida. *Pedagogs jurnali*, 10 (2022). (1), 216–225.
17. Eshkobilov S. (2022). Criminological description of organized crime. *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, 4(04), 1-6.
18. <http://lex.uz>.
19. <http://tsul.uz>.
20. <http://norm.uz>.
21. <http://ferlibrary.uz>.
22. <http://library.ziyonet.uz>.
23. <https://kitobxon.uz>.
24. <https://n.ziyouz.com>.